

DRAMATURG OUYAN YUYSYANNING "BIRGALIKDA YASHAYOTGAN
UCH OILA" DRAMASIDA XARAKTER VA VAZIYAT

Sh.T.Komilova

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xitoyshunoslik oliy maktabi katta o'qituvchisi*

sh_muslima@inbox.ru

+998909597915

Annotatsiya. *Xitoy xalqining adabiyotini o'rganish davomida biz uning chuqur tarixiy zaminga ega ekanligiga guvohi bo'lamiz. Hozirgi zamon Xitoy adabiyotini o'rganish hamda o'quvchilar orasida keng tadbig' etishda zamonaviy xitoyshinoslikda katta muvaffaqiyatlarga erishilgan. Jumladan hozirgi zamon xitoy adiblari, shoirlari, dramaturglarning ijod namunalari rus, xamda ayrimlari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Xitoy adiblaridan biri Ouyan Yuysyan zamonaviy xitoy dramaturgiyasi rivojiga katta xissa qo'shgan ijodkorlardan biridir. O'z tadqiqotimizda biz, adibning erishgan muvaffaqiyati, ijod namunalarining biri bilan tanishtirinshi maqsad qilib oldik. Uning badiiy ijodi xaqida tasavur xosil qilish uchun adibning "Birgalikda yashayotgan uch oila" asarini taxlil tortdik.*

Kalit so'z. *"bayxua", "venyan" "So'l yozuvsilar jamiyatining", madaniy inqilob davri, «Adabiyot o'rganish» jamiyati, «Ijod» jamiyati, «Quyosh» jamiyati, zamonaviy milliy dramaturgiya*

Аннотация. *Изучая китайскую литературу, мы видим, что она имеет глубокуу историческуу основу. Современнауа синологиуа достигла бо́лих успехов в изучении современной китайской литературы и ее широком принятии среди студентов. В частности, произведения современных китайских писателей, поэтов и драматургов переведены на русский узык, а некоторые — на узбекский узык. Китайский писател Оууан Уйисуан — один из творцов, внесших значительный вклад в развитие современной китайской драматургии. В нашем исследовании мы ставили перед собой цел познакомит писателуа с одним из его достижений и примеров творчества. Чтобы составил представление о его художественном творчестве, мы проанализировали произведение писателуа «Три семи, живущие вместе».*

Ключевое слово. *«Байхуа», «Вэньянь», «Общество писателей левого крыла», период Культурной революции, общество «Изучение литературы», общество «Творение», общество «Солнце», современная национальная драма*

Annotation. *Studying Chinese literature, we see that it has a deep historical basis. Modern Sinology has achieved great success in studying modern Chinese literature and its wide acceptance among students. In particular, the works of modern Chinese writers, poets and playwrights have been translated into Russian, and some into Uzbek. Chinese writer Ouyang Yuxiang is one of the creators who made a significant contribution to the*

development of modern Chinese drama. In our study, we set ourselves the goal of introducing the writer to one of his achievements and examples of creativity. In order to get an idea of his artistic creativity, we analyzed the writer's work "Three Families Living Together".

Keywords. "Baihua", "Wenyan", "Left-Wing Writers' Society", Cultural Revolution period, "Literature Study" Society, "Creation" Society, "Sun" Society, modern national drama

Kirish. Xitoy XX asr yangilanish va inqilobi kurashlar asri bo'lib, mamlakat keskin o'zgarishlarni boshdan kechirdi, konfusiylilik aqidalarning tanazzuli, arslar davomidagi diniy va jamoa hayotida chuqur o'zgarishlar ro'y berdi. Xitoy adabiyotida yangi-yangi muammolar tug'iladi, badiiy izlanishning yo'llari izlanardi, "inson va jamiyat" muammosi muximligi yanada oshardi.

XX asr boshida mamlakatda inqilobiy ko'tarishlar davrida Xitoy adabiyotida bir qator iste'dodli adiblar ijodida rivojlanish yuz berdi. Xitoy so'z san'atining o'ziga xos ko'tarilish davri bu – "4 may 1919 yil" harakatidir. Feodal va chet el imperialistlariga qarshi qaratilgan yangi adabiyot o'zining eng yaxshi namunalarida demokratik, gumanistik, ijtimoiy va milliy – ozodlik g'oyalarini ilgari surildi. "4 may harakati" ziyolilarning inqilobiy chiqishlari bilan boshlanib, tez orada kichik va milliy burjuaziya vakillarining keng tus olishiga, ommalashib ketishga olib keldi. Bungacha Xitoydagi adabiyot faqatgina tanlangan shaxslar uchungina edi, chunki so'zlashuv til "bayxuada" yozilgan asarlar ko'p bo'lishiga qaramay, asosiy adabiy til bo'lib, "wenyan" – quloqqa tushunarsiz, o'rganish uchun uzoq vaqt talab qiluvchi qadimiy tildan foydalanilardi. Shuning uchun yangi madaniyatni shakllantirishda asosiy qiyinchilik butunlay bayxua tiliga o'tish edi. Eski realistik an'analarning tiklanishi va yangilarning paydo bo'lishi, insoniylik va xaqparvarlik – zamonaviy xitoy adabiyotining birichi asoschilardan birining ijodini xarakterlaydi⁴⁴.

1924-1927 yilgi inqilobning muvaffaqiyatsizlikka uchrashi kichik burjuazaya ziyolilarni lag'zaga soldi. Adabiyotda borgan sari ilojsizlik, individuallik, arxaik kabi kayfiyatlar xukm sura boshladi. Ziyolilarning eng ilg'or qismi, yoshlar muxim g'oyalarini o'rganishga kirishdilar.

Adabiy inqilob boshlanishi "Sin Sin-nyan" jurnali saxifalarida e'lon qilindi. Ular qadimgi aqidalarning kitobiy tilidagi adabiyotga qarshi bosh ko'tardilar. Adabiy inqilob yangi xitoy milliy madaniyatining vujudga kelish tarixida burilish yasagan voqea bo'ldi. Dramaturg, shoir, adabiy tanqidchi Go Mojo shunday deydi: "20 asr-ma'naviy va ruxiy yuksalish sari, zulmatga qarshi yorishish sari".⁴⁵

Ilg'or adabiyoti a'zosi bo'lish, yozuvchilardan shijoat, mardlik kabi xususiyatlarni talab qilardi. Mamlakatda xukm surgan eski tartib o'z ijtimoiy va ma'naviy asoslarini yo'qotgan

⁴⁴ 中国现代文学史. 1917-1997. 北京/2008.

⁴⁵ "Драматургия Го Можо" - Федоренко Н. Т. Очерки современной китайской литературы. 1997.

20-30 yillarda ayniqsa ko'rina boshladi. Bo' yillarda ko'plab ilg'or yozuvchilarning badiiy ijodi taraqqiy etgan davr hisoblanadi. 20 yillar boshlarida adabiyotga Yevropa, Yaponiya, Angliya mamlakatlari ijodkorlarining ijod namunalarining tarjimalari kirib keldi, chet el mamlakatlari tarixi va adabiyoti nazariyasiga oid juda ko'p kitob va maqolalar xitoy tiliga tarjima qilina boshlandi. Xitoy shu tariqa inqilobiy yozuvchilar birlashmasi a'zolari boshchiligida xitoy "So'l yozuvchilar jamiyatining" tashkil etilishi Xitoy adabiyoti hayotida yirik xodisa bo'ldi. Jamiyat 1930 yilda Shanxayda tashkil etildi. So'l yozuvchilar jamiyatga a'zo bo'lgan bir qator ilg'or adiblar: Lu Sin, Mao Dun, Szyan Guashi, Tyan Xan, Go Mojo, Ouyan Yuysyan, Xun Shen, kabilardir. Jamiyat a'zolari o'zlari yaratgan asarlarida xalqning kelajagi, vatan ravnaqi, ma'naviy rivoji yo'lida bir qator ilg'or g'oyalarni ro'yobga chiqarishga xarakat qildilar. Shu munosabat bilan o'sha davrda yaratilgan Tyan Xanning "Suv toshqini", Mao Dunning "Tong otishi", Xun Shenning "Chjao shaytoncha", In Fu, Pu Fenning she'riy asarlarini misol keltirish mumkin. So'l yozuvchilar jamiyati a'zolari ayniqsa 30 yillarning birinchi yarmidagi adabiy jarayonida juda muxim rol o'ynadi. Mana shu yillarga kelib ilg'or Xitoy diyorlarning ijtimoiy, madaniy va uning yuksak inqilobiy g'oyalari turli tamoyillari bilan yanada yaqinlashuvi ro'y berdi.

Asosiy qism. Yangi adabiyot uchun kurash mashaqqatli kechdi. Yangi adabiyotning asosiy jixatlari shuki – xalq muammosini tasvirlashda, ijtimoiy xayotini salbiy tamonlarini fosh etishda muxim rol o'ynaydi. Ayni shu davrda fosh etuvchi roman, qissa, p'esallar, she'riy asarlar yaratildi. Shu qatori adabiyotda dramaturgiyani rivojida xissasi katta bo'lgan Ouyan Yuysyan ijodida yutuqlar davri bo'ldi. Ayni shu davrda uning bir qancha yirik asarlar yozildi: "Baxordagi majnuntol" (1907), "Kameliyalik dama", "Qaynoq koz yoshlar", "Xijron", "Negrlarning tavbati" "Qora kullarning o'tinchi", "Tom amakining kulbasi", nomli asarlarini saxnalashtirdi. 1931 yilning setyabridan 1932 yil yanvarigacha bo'lgan davragi Xitoy xalqi demokratik qatlamlari kurashining "unitilmas" deb nomlangan asari chiqdi. Sozlashuv drama – an'anaviy shaklidan o'zining asosiy xususiyatlari bilan ajralib turadi, farqi: ariya kuylanuvchi arxaik tildan voz kechib, zamonaviy tilida ifodalanuvchi jonli tilga otish shakli, xalqning ma'naviy dunyosini yangi teatr san'atini an'anaviy shaklidan farqlab beradi. Madaniy inqilob davrida va undan keyin xam yangi teatrida zamonaviy shakldagi pesalar saxnalashtirib keldi.

20-yillar oxirida ular xitoy amaliyotdagi hayoti bilan badiiy obrazlar o'rtasida qarshi-qarashlar mavjudligini anglay boshladilar. 20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, Lao She orqali yangi xitoy adabiyotida ijtimoiy-maishiy roman vujudga kelgan, bu an'anani Mao Dun, Ba Szin, Chjan Tyanlar rivojlantirdilar. 20-yillarda Van Tunchjao, Chyuy Dafu va boshqa realistik yo'nalishdagi yozuvchilar o'z yo'llarini boshladilar. Ularning asarlarida o'sha yillarda Xitoydagi og'ir ijtimoiy hayot-ko'rsatilgan: feodalizm davrining ortga ketishi, yangi shaxsning shakllanishi va uning jamiyat bilan o'zaro munosabati.

Biroq ichki va tashqiqarama-qarshiliklar kuchayishi va mamlakatda ishchilar harakatining faollashuvi bilan tanqidiy realizm ustalari bu yo'nalishning cheklanganligini seza boshladilar, boshqa badiiy prinsiplarni qidirishni boshladilar. Tanqidiy oqimdagi

realistlar oddiy insonni ezilgan shaxs sifatida ko'rsatganlar, unga yordam berish haqida gapirganlar, amaldagihayotni o'zgartirishini talab qilganlar, biroq ularni proletariatning faol harakati bilan bog'lanmaganlar. Xitoyda inqilobiy jarayonning rivojlanishi shuni tasdiqladiki, xalq eziluvchi sinfdan kurashuvchan, faol sinfga aylanib borgan. Hayot yangiqahramonni yuzaga keltirdi, uning o'z haq-huquqi uchun kurashishihayot-mamot ishiga aylanib qolgan. Bu adabiyotda yangi usul - ijtimoiy realizm usulining yaratilishiga olib keldi.

XX asrning yigirmanchi yillari oxiri o'ttizinchi yillar boshida Lu Sin Syuy Syubo, Xu Yepin, In Fu ijodida yangi usul yaratilgan. Lu Sin «Lao Xechjen ocherki qahramonni g'oyasi xitoy ziyolisini chuqur ishonch bilan ko'rsatilgan, u hayoti bilan ximoya kilishga tayyor. Neoromantiklar ijodida xam yirik o'zgarishlar ro'y bergan. Ular orasida insoniyatning ozod etishiga chindildan harakatqilganlari, ozodlik va aql g'alabasiga ishonganlar realistik san'at tamoniga o'tdilar.

30 yillarning boshlarida adabiyotning asosiy yo'nalishi tanqidiy va ijtimoiy realizm qabul qilingan. Xitoyda bu davrdagi - Xitoy burjuaziyasi davrida - ijtimoiy realizmga o'tish ancha qiyinroq edi, chunki feodalizm xususiyatlari xali xam mamlakatda mavjud bo'lib kelmoqda edi. Bu davrdagi yozuvchilar oldida xalqqa yaqinlashish, yo'lboshchilik va siyosiy o'qishlarga jiddiy qarash, kabi vazifalar turar edi. Shanxay shaxrida tuzilgan «So'l yozuvchilar» jamiyati oldida xam shu kabi vazifalar turardi. Bu jamiyatga 50 dan ortiq odam a'zo bo'lib, ulardan ko'piilgari turli xil adabiyot birlashmalarining a'zolari edi. Bu kabi birlashmalar jumlasiga quyidagi birlashmalarni xam kiritish mumkin:

«Adabiyot o'rganish» jamiyati, «Ijod» jamiyati, «Quyosh» jamiyati. Bularning a'zolari: Lu Sin, Mao Dun, Xu Ye Pin, Jou Shi, Din Lin, Ye Shen Tao, Tyan Xan, Yuy Da Fu, Fen Nay Chao, Sya Yan va boshqalar. Shu jamiyat ushbu vazifalar o'z oldilariga maqsad qilib olgan edilar:faoliyatchilar (adabiyot va san'at soxasida) jamiyatda birinchi pog'onalarida turishlari zarur edi. Jamiyatdagi reaksiy-konservativ xolatlarini yo'kotishda odamlarniboshqarishlari kerak edi.Bu jamiyat ushbu jurnallarni bosib chiqarar edi:«Katta ayiq», «Pioner», «Nishonlar» «Adabiyot», «Tuzum», «Partizan». Bularning nomio'zgarib turishiga qaramay, ular xamma vaqt bosib chiqazilardi. Bu jamiyatning asosiy vazifasi: xalqqa yaqinlashish edi. Bu yozuvchilarning ko'pi xorijiy mumtoz, rus va yozuvchilar asarlarida va xitoy milliy an'anaviy adabiyotidan ta'lim olgandilar.

Shu davrning eng asosiy bosqichlaridan biri - 1934 yili «I Ven» - «Tarjima adabiyoti» jurnali nashrdan chiqdi. Bu jurnalda rus adabiyotidan tarjima qiluvchi yozuvchilar Sao Sinxua, Vey Suayuen ham qatnashdilar. Bu jamiyatda yosh yozuvchilar ham faol ishlab, ham ta'lim olganlar: Din Ling, Jou Shi, Xu Ye Pin, In Fu va boshqalardir.

Yangi turdagi dramaturgiya va teatrning shakillanishda Yaponiyada tashkil qilgan «Baxorgi majnuntol» (Chun Lyu She) jamiyatning tashkilotchisi Ouyan Yuysyaning (1889-1962) xissasi katta. Uning qalamiga mansub bir qator drama asarlari g'oyasida dastlabki va xozirgi dramaturgiyaning uyg'unlashuvini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari u «Xuaszyuy» janridagi p'essalarining ilk mualifi, rejisyori va aktyori hamdir.

Mamlakat taqdiridagi tarixiy o'zgarishlar bilan bog'liq ravishda teatr o'z oldiga zamonaviy madaniy-ma'rifiy vazifalarni quydi. Yangi g'oyalarning san'yatiga ommalarni qiziqtirgan ziyolilar bo'ldilar. "Baxorgi majnuntol" (Chunlyu she") jamiyatning tashkilotchisi **Ouyan Yuysyan (1889-1962)** katta rol o'ynadi. "Kameliyalik dama", "Qaynoq ko'zyoshlar" degan nom ostida "Hijron"ni hamda "Negrlarning nafrati" yoki "Qora kullarning o'tinchi" degan nomlar bilan ma'lum bo'lgan "Tom amakining kulbasi" degan asarlarni saxnalashtardi.

Zamonaviy milliy dramaturgiya dastlabdanoq san'atning ko'p qatlamli hodisasi edi. "Xua szyuy" teatri adabiy asosida paydo bo'ldi. Unda halqqa chuqur ishongan progressiv va demokratik kayfiyatdagi dramaturglar ilk qadamlar quydilar. Ularni izlashdagi faollik farqlab turar edi. Ular o'zga yurt madaniyati va fanini o'zlashtirish uchun jasurlik bilan o'zga o'lkalarga ketar edilar (Ouyan Yuysyan, Sya Yan – Yaponiyaga, Xun Shen, Syun Fusi – AQShga va hokazo). Jahon madaniyatini idrok etish ular ega bo'lgan xorijiy til, tashrif buyurgan mamlakat orqali amalga oshdi. Har birining o'ziga xos ijodiy yo'lida kim, qachon va qay tarzda ularga ta'sir etganini kuzatish juda qiyin edi. Umuman olganda bu tashabbuskor, tadbirkor, ma'rifatli insonlar o'sha davrdagi xitoydan ko'ra ilg'or bo'lgan mamlakatlarda intellektual tayyorgarlikdan o'tdilar.

Shu davrning o'zida Ouyan Yuysyaning boshqa "Riksha oilasi" dramasi ham e'tiborni jalb etdi. Bu asarda xitoy adabiyotida ilk bor sharqiy shaharlar mehnatkashlarning ko'p sonli qatlam bo'lgan rikshalarning insonga xos bo'lmagan hayot tarzi va mehnatiga e'tibor qaratildi. Dramaturg ijtimoiy adolatsizlikda, qashshoqlik, huquqsizlik va qaramlikda yashayotgan rikshaning oilasini ko'rsatadi.

Ma'lumki, adabiyotning bosh mabai—inson. Badiiy asarning zaminida hamisha inson turishi xam bejiz emas. Insonning hayoti, mehnati, kurashi, manfaatlari, his-tuyg'ulari, qarashlari, fikri adabiy asarning mazmunini, syujetini, fabulasini, shaklini tashkil qiladi.

Dramaturgiyada badiiy xarakterga yaratishga juda katta ahamiyat berilib, u asarning markaziga qo'yilib, dramatik xaraktni tashkil qiluvchi, barcha voqea xodisalarini ishga soluvchi shaxsiyat sifatida namoyon bo'lmoqda.⁴⁶

Dramaga qo'l urgan yozuvchidan hikoya qilish, fikrlar va tuyg'ularning bayon etish jarayonidan aks ettirish yo'liga o'tish, xarakterlarni kashf etish, ularni ochib berish, ya'ni asar g'oyaviy mazmunini ifodalash mahoratini egallash talab etiladi. Xarakter muallifning g'oyaviy niyatlari asosida badiiy vositalar yordamida yaratiladi.

Dramaturg Ouyan Yuysyaning p'esasida muallif voqea xodisaning qaerda, qanday sodir bo'lishini asarning boshida keltirib o'tadi.

王素伟是一位小学女教师。她的家有两间房。前面的是客厅，后面的是卧室，这两间房是用木板隔开的。再往后还有两间小房间。从台阶往左走，会看到一条小走廊，这条走廊正好通往那两间小房和厨房。事情发生在广州。

Bir boshlang'ich maktabning ayol o'qituvchi Vang Suveyning oilasi. Ikki xonali. Oldingi tomondagisi mexmonxona, orqa tomondagisi esa yotoqxona bo'lib bu ikki xona yog'och

⁴⁶ Хафиз Абдусаматов. Драма назарияси. 2000й. 79 б

*taxta bilan ajratilgan. Ulardan keyin esa yana ikkita kichik xonalar bor. Supadan chap tomonga qarab yursilsa bir kichik yo'lakchga ko'zingiz tushadi, ana shu yo'lakcha aynan o'sha ikkita kichik xonalar va oshxonaga olib boradigan yo'ldir. Voqiya Guanjouda sodir bo'lgandi.*⁴⁷

Pesadagi voqea xodisalar aynan shu xonadonda sodir bo'lib o'tadi. Muallif esa qaxramonlarning yashash sharoitlarini, turmush tarzi, jamiyatdagi mavqeini shu tasvir orqali ifoda qilib berishga xarakat qiladi.

Xarakter muallifning g'oyaviy niyatlari asosida badiiy vositalar yordamida yaratiladi. Ularning milliy individual xususiyatlari voqealar zaminida yaratiladi. Ouyan Yuysiyanning xam pesada keltirilgan uch oiladagi xar bir qaxramon xarakterini voqealar zaminida yaratib bergan. Pesadagi voqealarda asosan shaxardagi ishchilar xarakati, yoshlar muammosi, ishsizlik va ularning muammolari aks ettirilgan. Pesada ishtirok etuvchilar ko'pchilikni tashkil etmasada, ularning barchasi o'z xarakteriga ega. Vang Suvey (boshlang'ich maktab o'qituvchisi), Vang Su Vey ning onasi, Chen kelinoyi (Guchingni xotini), Chen Guching, A Ming (montyor), A Ching (tikuvchi qiz), ijarada turgan bir nechta yigitlar, militsiya xodimi, Li Shivu, A Kay (Lining xizmatkori), A Yun (Lining haydovchisi) kabilardir. Bularning xar birida o'z davrining ruxi aks etgan.

Xarakterni belgilovchi muxim xususiyat, bu inson shaxsining individual o'ziga xosligidir. Xar bir xarakter hayotiy materiallar zaminida o'z qiyofasini topishi, umumlashtirilishi lozim. Ushbu pesadagi bosh obrazlardan biri bu Van Su Vey obrazi zaminida o'sha davrdagi yoshlarga xos bo'lgan sifatlar umumlashtirilgan. Pesadagi bosh obraz Van Su Vey ayol bo'lishi bilan birga uning muhim fazilati adolatparvarlik, rostgo'ylik. Uning xarakterida o'sha davrning, ya'ni ishchilar xarakati davridagi yosh ayol va qizlarning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin. Van Su Veyning xarakteri o'zining yashash tarzi, kurashish usullari, ma'naviy qarashlari, fe'l atvori, o'y-kechinmalari bilan ajralib turadi.

Xarakter deganimizda ko'z oldimizga badiiy asarning g'oyasi, mazmun va shaklning birligi, syujet va kompozitsiyaning yaxlitligi keladi. Dramaturg Ouyan Yuysyaning pesasida har bir qaxramonning xarakterini xayotiy voqealarini, salbiy va ijobiy taraflarini badiiy maxorati orqali ochib bergan. Bosh qaxramon Van Su Veyning irodali, mard, kuchli ayol ekanligi xar qanday qiyinchilikka mardonavor tura olishida ko'rinadi. U xar qanday sharoitda xam o'z fikriga tayangan xolda ish olib boradi. Otasidan erta ayrilgan, akasi xam urush vaxtida halok bo'lgan Van Su Vey yolg'iz onasi bilan ijarada yashaydi. Yuqorida keltirilganidek, istiqomat qilayotgan uyi bir nechta kichik xonalardan iborat bo'lib, kun kechirish uchun o'zlari ijarada yashayotgan bo'lsalarda, o'sha kichik xonalarni yana ikkita oilaga ijaraga berilgan. Bir uyda uchta oila ijarada yashaydilar. Ularning xayot tarzi xar xil bo'lsada, kun kechirish uchun qo'llaridan kelganicha vaziyatdan chiqib ketishga xarakat qiladilar. Pesa davomida shunga guvox bo'lamizki xar bir obrazning voqealarga o'z

⁴⁷ 中国新文学大系 1927-1947/ 戏剧集一。2003 年。260 页

munosabatini bildirishi, birgalikda muammoni yechimini topishga xarakat qiladilar. Voqealar rivojida ijara pulini so'rab xonadon egasi keladi, birozdan so'ng esa yer solig'idan ma'sul shaxs keladi, undan so'ng esa suv komunal xizmati vakili qarzdorlikni so'rab keladi. Ilojisiz qolgan bu oilalar tushkunlik girdobiga tushib qoladilar.

王素伟：陈哥，您就别跟嫂子生气了。说实话，这一切说到底还是因为失业。大家只能忍耐，去寻找克服生活困难的办法，别无选择。

陈格前：我怎么会跟她生气呢？这几天我简直可以说是在街头流浪。想工作却没有工作，连房租都快交不起了。再说了，在这种时候，我还能怪自己的老婆吗？

Vang Su Vey: Chen aka, kelin oyimdan xafa bo'lmasangizchi. Ochig'ini aytganda bularni hammasiga ishsizlik sabab. Hamma sabr qilib hayot qiyinchiliklarini yengib o'tish yo'llarini izlashdan o'zga chorasi yo'q.

*Chen Gechian: men undan nega xafa bo'larkanman. Men mana shu bir necha kun ichida ko'cha sang'idim desam ham bo'ladi. Ishlay desang ish yo'q. Hatto ijara pulini ham to'lolmaydigan darajaga kelib qoldik. Buning ustiga endi o'z xotinimdan xafa bo'lib o'tiraymi?*⁴⁸

Muallif bu orqali ishsizlik tufayli og'ir vaziyatga tushib qolgan oddiy xalqni ifoda qiladi. Aynan XX asrning boshlaridagi inqilob tufayli jamiyatning turli soxalarida o'zgarishlar sodir bo'lgani, ya'ni zavod, fabrika, korxonalarning yopilgani, soxa vakillarining ishsiz qolgani yaqol namoyon bo'lgan.

XX asr boshlarida yaratilgan bir qator nasriy asarlarda ayollar obrazi tubdan farq qiladi. Jamiyatdagi turli qatlamga mansub ayollar obrazi o'ziga xos yaratilgan. Masalan ayol yozuvchilarning asarlarida berilgan ayol obrazi avtobiografik xususiyatga ega obrazlardir. Inqilob davridagi ayollarning o'z vatani uchun kurashishga kuch topa olgan, yoki aksincha, eskilik sarqitlarining qurboniga aylangan ayollar xam tasvirlangan. Bir qator dramatik asarlarda xam yaratilgan ayol obrazlari kuchli, inqilob xarakatlari ishtirokchilari, yangi zamon uchun kurashuvchi ayol va qizlar obrazi yaratila boshlangan. Misol uchun dramaturg Tyan Xanning "Maxoratli aktyor" pesasida yosh aktrisa qiz bo'lib, o'z xayotini o'zi qurishi uchun uydan chiqib poytaxtga aktyorlik kasbini o'rganish uchun kelgan qiz. Qiyinchiliklarga duch kelsada mardonavor kurashuvchi qiz tasvirlangan. Sao Yuyning "Momaqaldiroq" pesasida xam shunday xarakterga ega ayol obrazi yaratilgan. Bu asarda keltirilgan ayol obrazi boy xonadonning oddiy xizmatkor ayolni qizi, onasi kabi xonadon xizmatchisi. Lekin o'z qarashlariga, fikriga ega qiz obrazi muallif tomonidan maxorat bilan ochib berilgan. Bizning ushbu pesamizdagi bosh obraz Van Su Veyga muallif tomonidan ta'rif tasnif bermasada, voqealar davomida qizning xarakteri ochib berilgan. Van Su Vey yuqorida aytib o'tganimizdek yolg'iz onasi bilan qolgan, otasi va akasidan erta ayrilgan, maktabda oddiy o'qituvchi bo'lib ishlaydigan qiz. O'zlari ijarada yashasada, ikkita oilaga bo'sh turgan ikki xonani ijaraga bergan. Voqealar davomia qiz uyga avval ijara pulini, yer

⁴⁸ Ўша китоб

solig'ini, suv pulini undirish uchun kelgan vakillarga pulni to'lashga xarakat qiladi. Voqealar rivojlanib borish davomida xonadonda yashovchi xar bir oilanig xarakteri xususiyati ochib berilgan. Asarda o'zlari ishtirok etmasada ba'zi bir oila a'zolari xaqida xam bilib olish mumkin, ular perzonajlarning o'zaro dialoglari orqali keltirib o'tilgan. Oxir oqibat jarima pulini undirishga kelgan milisiya xodimi Van Su Veyni xibsga oladi. Uyda olib chiqib ketayotgan bir paytda qaerdandir uni doim kuzatib yurgan bir inson paydo bo'ladi. Albatta milisiya xodimidan qizni qutqarish maqsadida uyning barcha qarzlarini to'lashga va'da berib Van Su Veyni olib qoladi. Van Su Veydan tashqari xonadondagilarning barchasi bundan xursand bo'ladilar. Bu inson garchi Van Su Veyni qutqarib qolgan bo'lsada, qanday inson ekanligini u juda yaxshi biladi. Muallif tomonidan Li Shivu ismli bu insonga xech qanday ta'rif berilmagan, u xaqida Van Su Veyning bergan ta'rifidan bilib olish mumkin.

王素伟：他以前只是个穷人，是他那当校长的亲戚给他介绍了不少有钱人。有一次他去赌博，竟然赢了一大笔钱。从那以后，他就一直靠卖香烟、日用品，还有放高利贷为生。最可笑的是，他根本没有头脑，也没什么文化，什么都不懂。可就因为有了豪华的房子、开上了车，人们就觉得他变成了个聪明、有见识、有学问的人了。连教育、政府、艺术他都懂了——这难道不可笑吗？

Vang Su Vey: u oldin kambag'algina odam edi. Qarindoshi direktor uni ko'p boy odamlar bilan tanishtirib qo'ydi, bir marotaba qimor o'ynadiyu, juda katta pul yutib oldi. Shundan keyin u xozirgacha sigareta, kundalik extiyoj mollari, pul savdosi bilan shug'ullanib keladi. Eng qizig'i shuki uning umuman faxm farosati yo'q, xech qanday savodi yo'q, hech narsani tushunmaydigan odam edi. Hashamatli uyi, tagida mashina bo'lishi bilan farosatli, hamma narsaga tushunadiga o'qimishli odamga aylanib qolishadi. Ular ta'lim soxasini ham tushunadi, hukumatni ham, san'atni ham tushunadi, bu juda ham kulgili emasmi?

Vang Su Veyning bu so'zlari orqali muallif jamiyatdagi ayrim sohta insonlarni kinoya ostiga olgan.

Uning bu fikrini to'liq tushunmagan ona buni ilg'orlik deb ataydi. Chunki o'zlari yashayotgan muxitda naqadar ilojsiz qolganliklaridan bunday insonlarning ishlarini ilg'orlik deb tushunadi. Bunga javoban Van Su Vey o'z fikrini bildirib o'tadi.

王素伟：先进？他哪儿先进了？除了会赚钱和泡女人，他哪方面先进了？看到个女人就不勾搭一下心里就不舒服。你没看到他那副装腔作势、自以为是的样子？看了都让人恶心！

王母：没看到又怎么样？男人一有了钱，不都变成那样了吗？你可千万别惹他，他可是你们校长的亲戚，要是惹毛了他，对你可没好处。王素伟，你是不是忘了你爸是怎么死的？你爸也是因为惹怒了校长，被人诬陷，最后给关进去了。不是他自己气得活活死的吗？现在这世道，全都掌握在有钱人手里了。不填饱肚子不行啊，你必须

得吃饱饭。所以，除了在他们面前低头，你还有别的办法吗？就算你真能靠自己本事混口饭吃，就算你真能靠自己活下去，这世界照样会制造出一批又一批在你头上作威作福的人。你觉得，还能等多久？你就试试看抬起头来。

Vang Su Vey: ilg'orlik deyishadi? U hech narsada ilg'or emas. Faqat pul ishlash va ayollar soxasida ilg'or. Bir ayolni ko'rib qolsa tamom uni ilintirmasdan ko'ngli joyiga tushmaydi. Boyagi kekkaygan, olifta, bachkana turishini ko'rdingizmi, ko'ngling aynidi!

Vang ona: ko'rmaganimizda nima, erkak odam pul topdimi, hammasi shu kuyga tushadi. Hech ham uni jig'iga tega ko'rma, u direktoringni qarindoshi bo'lsa, jahlini chiqarib qo'ysang o'zingga yomon bo'ladiya. Vang Su Vey, seni otang qanday o'lib ketganini eslamaysanmi? Otang ham direktorni jaxlini chiqargani uchun katta tuxmatga uchradi va qamatib yuborishdi, o'zi o'zini yeb o'lib ketmaganmidi? Xozir dunyo puli borlarni qo'lida bo'lib qoldi. Qorin to'ydirmasang bo'lmaydi, qorin to'ydirishing shart, shuning uchun ham ularni oldida bosh egishdan boshqa ilojing yo'q. To'liq o'zingni kuchinga suyanib non topa oladinigan bo'lsang ham, o'zingga suyanib yashay oladigan bo'lsang ham bu dunyo baribir ustingizdan shunaqa hukmronlarni paydo qilaveradi. Yana qancha vaqt kutish mumkin deb o'ylaysan? Bosh ko'tarib ham ko'rchi.

Onaning bu nidosi davrning ayanchi xolati, tuzumning jirkanch axvoli xaqida so'z yuritilgan. Muallif bejizga katta avlod vakili xisoblangan ona tomonidan berilmagan.

Asarda biror bir salbiy jixatlari bilan ko'ringmagan bo'lsada, Li Shivu kim va qanday "shaxs" ekanligini xonadon a'zolaridan biri va Li Shivuning xaydovchisi o'rtasidagi suhbatida xam ko'ringan.

Chen Gechian: boya kelib ketgan Li Shivumidi? Uni otasi yapon firmasining savdo xodimi emasmi? (A Yun bosh silkitadi) uni otasi kasod bo'ldi, o'lgach bir chaqasi ham qolmagan edi. Men uni qashshoq bo'lib qolgan deb o'ylab yurardim, bunchalik tez boyib ketishi xayolimga kelmagan ekan.

A Yun: bunga sabab otasining tanishlari yaponlar unga katta yordam qilishdi. U afyun bilan shug'ullanib qo'lga tushdi, qimorda yutqazidi, bir necha marta kasodga uchradi. Keyinchalik bilmadim qanday ish olib bordi, kerakli odamlar bilan tanishdiyu yana birdan kuchayib ketdi. Keyingi paytlarda u markaz puli bilan shug'ullanayapti va buni orqasidan katta pul ishlayapti. Qo'lini bir aylantirsa tamom bir necha o'n ming qo'lida, bir joyda o'tirsa ham boylikni o'zi oqib kelaveradi. Shuning uchbun bunaqa odamlar uchun pulni qadri qancha o'zgarsa shuncha yaxshi.

Pesadagi muhim fazilat, bosh qaxramonning qalbida yuz bergan g'issiyot bilan burch o'rtasidagi ziddiyatning ifoda etilishi. Van Su Veyning ichki tuyg'ulari bilan majburiyatining qarshi kelib qolishi uni og'ir iztirobga solib qo'yadi. Onasini, hattoki uyda yashayotgan boshqa oilalarni qutrqarib qolish uchun u Li Shivuning taklifiga rozi bo'lishni istasada, uning qanday inson ekanligini bilganligi uchun ichki tuyg'ulari bunga qarshi edi. O'z or nomusini ustun deb bilardi. Bu qarma qarshilik uni iztirobga solayotgan edi. Pesa

yakunida Van Su Vey o'z tuyg'ulariga quloq soladi va to'g'ri yo'lni tanlaganiga o'zi amin bo'ladi.

Vang Su Vey: (xona ichiga goh tashqarisiga kirib chiqib, oxiri eshik oldiga boradi) oyi, sizni gaplaringiz noto'g'ri. Nima bo'lgan taqdirda ham men borolmayman. Men ham tarbiya ko'rgan odamman. Agar meni shunaqa yo'l bilan qorin to'yg'azishimni xoxlasangiz, undan ko'ra ochdan o'lganim yaxshi emasmi? A Mingg to'g'ri gapirdi yangi dunyoga biz faqatgina o'zimizning qizg'in kurashimiz orqaligina erishishimiz mumkin, uni axmoqqa o'xshab kutib o'tiravermasligimiz kerak. Biz zinxor va zinxor mana bunday burjuaziya vakillarini aldovlariga uchmasligimiz lozim. Men hammasiga tushunib yetdim, men bundan so'ng bor kuchim bilan inqilob jangchisi bo'lishga harakat qilaman. Biz atrofimizdagi to'siqlarni faqatgina o'zimizga suyangan xoldagina bartaraf etishimiz mumkin.!

[u gapira turib ustidagi kiyimlarini yechib yerga tashlaydi. Stulga o'tirib achichiq yig'laydi. Xamma baqrayib tikilib qolishadi.]

Yozuvchi xarakterlarni avvaldan o'zi tayorlab qo'ygan andozalar asosida emas balki xayotiy materialarni o'rganish va uning qonuniyatini kashf etish natijasida yaratadi, u o'quvchiga xulosalar chiqarishga sabab bo'ladi. Yuqorida keltirib otganidek dramaturg Ouyan Yuysyanning pesalari bir-biridan voqea xodisalari, qaxramonni, ular ishtirok etgan joy nomlari ham turli, o'ziga hos axamiyatga ega. "Birgalikda yashayotga uch oila" dramasida voqealar bir tizimda davom etadi. Asardagi barcha to'qima ishtirokchilarning uy tashvishi va muammolari bo'lib ularning har biri asar davomida o'ziga xos xarakterga ega. Misol uchun yana bir ayol obrazi Chen kelinoyi (Guchingni xotini). Bu ayol xam yosh bo'lishiga qarmay hayotda muxit tufayli anchagina qiyinchilik ko'rgan, xayot uchun kurashishga intilayotgan obraz. Tumush o'rtog'i Guchingni ishsizligi tufayli pul topa olmayotganidan xafa bo'lsada turmush o'rtog'ini qo'llab quvvatlaydi. Vang onani xam yolg'itlatib qo'ymaydi, qiyinchilikdan chiqib ketish yo'llarini topishga xarakat kiladigan ayoldir. Bu drama obrazlari ijobiy yoki salbiyga ajratilmaydi, aksincha xarakter jixatini tipiklashtiradi. Pesadigi A Ming obrazi oddiy motyor bo'lib ishlasada o'qimishli edi, vaziyatga to'g'ri baxo bera oladigan yor yigit edi.

阿明：王女士， 我们只有通过自己的顽强斗争，才能迎来一个新的世界。新的世界绝不会自己送上门来。就说他们帮我们交了房产税，又怎么样？这值得我们感恩戴德吗？那些有钱人对我们的所谓“施舍”全都是假的，连“施舍”这个词都不配用。他们给的钱，其实只是为了进一步压榨我们。我们必须把这种谎言彻底揭穿，不能让他们用这套把戏把我们套牢。

A Ming: Vang xonim, biz yangi dunyoga faqatgina o'zimizni qizg'in kurashimiz orqaligina erishishimiz mumkin, yangi dunyo hech qachon bizni oldimizga o'z o'zidan kelib qolmaydi. Biz uchun uy solig'ini to'ladi, xo'sh, bu nima bo'libdi. Eslab yurishimizga arziydimi? Puldorlarni bizga qilgan saxovati hammasi yolg'on. Saxovat deb aytishga ham tiling bormaydi. Ular bergan pul bizni yanada siqish uchungina xizmat qiladi. Biz bunday

yolg'onlarni kulini ko'kka sovurishimiz kerak. Bizni chirmab tashlashlariga yo'l qo'ymasligimiz kerak.

Muallif A Mingning so'zlari orqali xali xanuz eskilik sarqitlariga barxam berilmagani, oddiy xalq ustidan xukumron kuchlarning ta'ziqi davom etayotganini tasvirlab beradi.

Muallif ushbu pesasida yaratgan xar bir obraz o'ziga xos xarakterga ega. Asar voqealari oddiy halq hayotidan olingandir, shu sababli har bir obraz alohida ifodalanadi. Aytib o'tganimizdek eng muhim Ouyan Yuysyanning mazkur dramasida oddiy xalq xayotining keng tasvirini ko'rsatadi. Garchi voqealar tasviri uyda, aniqrog'i bir xonada bo'lib o'tadi. Faqat dramadagi bo'lib o'tgan voqea esa bir kunlik voqealar tasvirida berilgan. Biroq muallif ana shunday tasvir vositasida urushga, inqilobga nisbatan salbiy munosabatini uning oqibatida bir axvolga tushib qolgan xalqni tasvirlab beradi. Urushda talofat ko'rgan xalq kun ko'rishi xam og'irlashib qoladi. Kimdir yaqin insoninidan ayrilgan kimdir esa yolg'iz. Muallif asarda oddiy insonlarning turmush tarzini ko'rsatib berish bilan birga ularning o'z fikrlarni muorat bilan yoritib bergan.

Dramatik asarlarda bir shaxsni ikkinchi shaxsdan ajratadigan, ularning individual xususiyatlarini bildiradgan, o'ziga xos xarakterlarini namoyon qiladigan ham til. Xar bir qaxramonga shunday luqmalar beriladiki, unday luqmalarni shaxs aytishi mumkin emas. Chunki ular o'zlarining hayot tajribalari, dunyoqrashlari, voqelikdagi xodisalarni tahlil qilish darajasi, insonlarga baxo berish jihatlari bilan ajralib, bir birlariga so'zlash jihatlari bilan o'xshamaydilar. Ba'zan muallif uch, to'rtta so'zni shunday topib qahramonini gapirtiradiki, bu so'zlar uning individual xarakterini ochib berishga imkon beradi.

陈桂卿：良心？笑话，不睡马路边就有了良心吗？我又没有本事去作地棍，巴结官府；又没有法子去作捐商，盘绿细民；又不能去包烟，包赌，作爱国爱民的买卖，又不能挂起招牌拿着枪四处去抢；这样的世界，我们这种人，不预备睡马路预备怎么样？

Chen Gechian: mexr? Kulgili gap. Ko'chada uxlamasak mexrli inson bo'lamanmi?

Ishimni yo'qotgan bo'lsam, biron savdo qilishni umuman iloji bo'lmasa, afyun, doping bilan shug'ullanishniku qo'yaver. Yelkangga miltiq osib talonchilik qilolmasang, ko'chada yotmay yana nima ham qilarding?

陈桂卿：你不要管我，我知道我没有钱不配作人的丈夫的，逼我我不做干什么？你干你的，我干我的吧，家里的东西卖了去还房租。

Chen Gechian: men bilan ishing bo'lmasin. Pulim bo'lmasa senga er bo'lishga arzimasingimni bildim. Men sen uchun nima ham qiloldim. Sen o'z bilganingni, men o'z bilganimni qilaman. Uydagi narsalarni sotib ijara to'layqol.

Chen Gechian: ular kambag'allarni qonini so'rishdan boshqasini bilishmaydi.

Muallif bu obrazni ochib berishda shunday nutqdan foydalanganki, qo'pol, mehrsiz bo'lib ko'rinsada, aslida, muammoning yechimini topa olmayotganidan vaziyat uni shu xolga keltirganini guvoxi bo'lamiz. bu qaxramonning nutqlari maxorat bilan berilganki, o'zi yashab turgan zaminga xos va mos tushgan.

Qahramonlar vaziyatga qarab, kerakli vaxtda shunday luqmalar etidilarki, ular shunday paytda boshqa mazmunda gapirishlari mumkin emas.

李十五：伯母你放心吧，这房子shi....a，是了；是邱子由的。我认识他，明天我跟他说明就是。来自水公司我明天打个电话去就行了。我看这样吧，我们一方面找个地方搬家，我明天再去弄张纸，打个印，写上“职员住宅”无得骚扰“就得了。

Li Shivu: onajon xotirjam bo'ling, Bu uy kimga qarashli ediya, ha, Chiuziniki. Men uni taniyman. Ertaga men unga aytib qo'yaman. Suv kompaniyasiga ham bitta qo'ng'iroq qilib qo'ysam bo'lgani. Bunday qilaqolsak, boshqa joyga ko'chib o'tsalarangiz, bitta qog'oz qilib pechat urib beraman, "xodim yashaydi, bezovta qilinmasin" deb yozib qo'yaman tamom vassalom.

Li Shivu o'z o'ylagan maqsadini qanday bo'lsada amalga oshirish uchun barcha vaziyatlardan foydalanmoqchi bo'ladi. U tomonidan aytilan barcha gaplar samimiy aytilayongandek tuyulsada, biroq u Vang Suveyni o'zi bilan ketishga ko'ndirish uchun aytayotgan gaplari edi.

Xulosa. Dramaturg Ouyan Yuysyanning "Birgalikda yashayotgan uch oila" p'esasini o'qib chiqib taxlil qiladigan bo'lsak, yozuvchi jamiyatchi yashagani sababli turli kishilar, voqealar, xamda yaxshi va yomon narsalarga duch keladi. Yozuvchi badiiy asar obrazini yaratish orqali insonlarga xos betakror o'ziga xos xususiyatlarni ko'rsatib berdi. Muallif yaratgan obrazlar va ular ishtarakidagi voqea va xodisalar shunday tasvirlagandiki ularning jonli tarzda ko'rsatayotgandek bo'lamiz. Yuqorida keltirib o'tilganidek dramaturg Ouyan Yuysyanning p'esalari bir-biridan voqea xodisalari, kaxramonlari ular ishtirok etgan joy nomlari xam turli, uziga xos ahamiyatiga ega. "Birgalikda yashovchi uch oila" dramasidagi voqealar bir tizimda davom etadi. Asardagi barcha ishtirokchilarning uy tashvishi va muammolari bo'lib, ularning xab biri asar davomida o'ziga xos xarakatga ega. Bu dramada obrazlar ijobiy yoki salbiy ajratilmaydi, ayniqsa xarakter jixatidan tipiklashtirilgan. Asar voqealari oddiy xalq xayotidan ularning yurish-turishi xayotiy muammolaridan olingandir, shu sababli xar bir obraz aloxida ifodalaniladi.

"Birgalikda yashovchi uch oila" dramasini o'qib yozuvchi tomonidan oilaning xayot tarzi, muamolarni, turmushini yaxshilashga qaratilgan intilishlarni chuqur yoritib bergan.

Xar bir obrazga ta'rif-tasnif berilmasada, ularning o'zaro dialoglari orqali xar birining xarakter xususiyatlari berib borgan. Ularning xakteri voqealar rivojida ochib berilgan. Xar bir obraz o'sha davrning turli qatlam vakillaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ҳафиз Абдусаматов. Драма назарияси. 2000й. 79 б
2. 中国新文学大系/ 1927-1947/ 戏剧集一。2003 年。260 页.
3. 评董健、胡星亮主编的《中国当代戏剧史稿》2014.
4. Zhen Enbo. Chinese literature. Cultural and publishing house. Beijing/ 1999.
5. Алексеев В.М. Труды по китайской литературе. В двух томах. “Восточная литература” РАН 2003.